



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI
VOBKENT TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko‘chasi 55-uy, tel: (65) 33-21-550, vobkent.t@exat.uz

2021 - yil 19 - noyabr

232-2-33-Q/21

Vobkent tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2021-yil 16-noyabrdagi 151-2-0-Q/21-sonli

qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-noyabrdagi PQ-9-sonli “Germaniya taraqqiyot banki ishtirokida “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda viloyat hokimining 2021-yil 16-noyabrdagi 151-2-0-Q/21-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2021-yil 16-noyabrdagi 151-2-0-Q/21-sonli qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasiga muvofiq, shuningdek, iqtisodiyotning barcha sohalari, shu jumladan qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda Germaniya taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda – KfW) bilan hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya Federativ Respublikasi o‘rtasida tuzilgan moliyaviy hamkorlik kelishuviga asosan KfW tomonidan O‘zbekiston Respublikasida “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasini (keyingi o‘rinlarda - Loyiha) moliyalashtirish uchun yillik 2 foizli stavkada, 10 yillik imtiyozli davrni o‘z ichiga olgan holda 30 yil muddatga kredit ajratish bo‘yicha qarz va grant bitimlari imzolanganligi;

loyihaning umumiy qiymati 29,8 mln yevro bo‘lib, shundan:

26,8 mln yevro KfWning kreditini tashkil etishi;

3,0 mln yevro Loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq konsultasiya xizmatlari uchun KfW grantini tashkil etishi belgilanganligi;

loyihani amalga oshirish muddati 4 yil (2021-2024 yillar) etib belgilanganligi;

loyiha Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda amalga oshirilishi belgilanganligi;

“Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasining asosiy ko‘rsatkichlari va mablag‘lardan foydalanish jadvali 1-ilovaga muvofiq;

“Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasida KfW kreditini va uning foiz to‘lovlarini to‘lashning prognoz jadvali 2-ilovaga muvofiq;

Germaniya taraqqiyot banki ishtirokidagi “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasini amalga oshirish yuzasidan “Yo‘l xaritasi” 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Viloyat hokimining mazkur qarori bilan viloyat hokimining o‘rinbosari A.Nazarovga viloyat qishloq xo‘jaligi boshqarmasi bilan birgalikda viloyatda amalga oshiriladigan “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasidagi tadbirlarni samarali amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek KfW va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq hisobot hamda zarur hujjatlarni tayyorlab taqdim etilishini tashkillashtirish topshirilganligi;

Viloyat hokimining o‘rinbosari - Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘iga viloyatda amalga oshiriladigan “Kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash” loyihasi doirasidagi tadbirlarni samarali amalga oshirilishini muvofiqlashtirish topshirilganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o‘rinbosari – investitsiya va tashqi savdo bo‘limi boshlig‘i B.Yusupov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



F.Umarov